

Abdulla Avloniy Pedagogic Merosi Orqali O'quvchilarda Vatanparvarlik Tuyg'usini Shakllantirish

Karamatova Dilfuza Sadinovna¹, Safarbayeva Ro'zaxon Nabijonovna²

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutafakkir, pedagog, jadid adabiyoti namoyondalaridan biri Abdulla Avloniyning asarlarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, uni hozirgi davr yoshlari, kelajak avlodga tatbiq etishda qanday afzal taraflari bo'lishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: mutafakkir, ta'lim-tarbiya, odob-axloq, xulq-atvor, vatanparvarlik tuyg'usi, kelajak avlod, o'quvchi, pedagog, ijodkor.

KIRISH. Bugungi kunda shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uni tarbiyalash va zamona ilmini o'rgatish dolzarb masala hisoblanadi. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi. O'z davrida zamonaviy ta'lim-tarbiyani shakllantirish va rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shgan ushbu jadid ma'rifatparvarlari ilgari surgan ushbu ulug'vor g'oyalar yosh avlod tarbiyasi bilan nafaqat oila, balki butun jamiyat va mamlakat shug'ullanishi mumkinligi va muhimligini, shaxs barkamolligi, ma'naviy tarbiyasi har doim ham ma'rifat ahli, mas'ullar uchun asosiy dolzarb muammo sanalib kelishini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniy pedagogik meroslarida yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish imkonini beradigan bir qancha nazariy g'oyalar mavjud.

Avloniy ijodi bo'yicha Begali Qosimov ilmiy izlanishlar olib borgan. U Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" hamda "Birinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni" kabi darslik va o'qish kitoblari ham xarakterli bo'lib, yaxlit bir tadqiqot uchun manba bo'la olishligini e'tirof etgan. Ayniqsa, ilk savod chiqarishdagi uning bu asarlari bolalar ongiga sodda va tushunarli yetib borishligini ta'kidlagan [1, 26, 27].

Shuningdek, pedagogika fanlari doktori, professor U.Dolimov «Abdulla Qodiriy» maqolalarini o'rganar ekan, uning ijodidagi ilk darslikka xos tuzilmani, g'oyaviy to'liqlikni, kitoblardagi o'ziga xos xususiyatlarni tadqiq qiladi. Ya'ni Avloniyning «Ikkinchi muallim» kitobi «Birinchi muallim» kitobining uzviy davomi ekanligini ta'kidlaydi [26, 27].

Hozirda yosh o'zbek tadqiqotchilari - Z.I.Nasriyeva Abdulla Avloniy asarlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya g'oyasining aks etishi, N.Saidova o'zbek adabiyotining buyuk allomasi Avloniy hayoti va ijodining yorqin qirralarini, uning pedagogik faoliyatini, adabiyotga qo'shgan, Sh.Y.Shakirova Abdulla Avloniyning pedagogikaga qo'shgan hissasini o'rganishgan.

METODLAR: tarixiy, retrospektiv va nazariy-uslubiy manbalarni tahlil qilish, olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va sharhlash, kuzatish, suhbat, anketa, kontent tahlil, kvalimetriya va ekspert baholash.

MUHOKAMA. Abdulla Avloniy siymosini tilga olar ekanmiz har bir inson ko'z o'ngida buyuk mutafakkir, pedagog ta'lim-tarbiya asoschisi gavdalanadi. Necha asrlardan beri xalqimiz Abdulla

¹ Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, Toshkent, Uzbekistan

² TDPU, BT farulteti 2-bosqich talabasi



Avloniyini buyuk pedagog sifatida tan olib kelmoqda. Haqiqatan ham Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari, dunyoqarashlari va pedagogik tavsiyalari xalq e'tiboriga tushib, bugungi kunda ta'lim tizimida, oilada, maktabda va oliy ta'lim muassasalarida keng qo'llanilib, asarlari targ'ib qilinib kelinmoqda [5, 6].

Hozirda esa Avloniyning ta'lim-tarbiya, odob-axloq, xulq-atvor haqidagi fikrlaridan tashqari, u o'quvchilarni kelajak avlod yoshlarni vatanparvarlik tuyg'usi asosida tarbiyalash, ularni Vatanni sevishga da'vat etganligini ko'rishimiz mumkin [3, 4]. Masalan, Abdulla Avloniy "*Turkiy Guliston yoxud axloq*" nomli asarida shunday deydi: "*Vatanni suymak*" "*Vatan har bir kishining tug'ulib o'skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ulgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar, hatto bu Vatan hissi-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bu hayvon o'z Vataniidan – uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talx bo'lub, har vaqt dilining bir go'shasida o'z vatanining muhabbati turar. Bobolarimiz: "Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l", - demishlar.*

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: "Hubbul-vatani minal-imoni-Vatanni suymak iymondandur", - demishlar.

Vatan, vatan deya jonim tanimdan o'lsa ravon,

Banga na g'am, qolur avlodima uyu vatanim.

G'ubora do'nsa g'amim yo'q, vujud zeri vahm

Charoki o'z vatanim hokidur go'ru-kafanim.

Tug'ib o'san yerim ushbu vatan vujudim hok,

O'lursa aslina roje' bo'lurmi man g'amnok", - deya ta'riflangan [1].

Bu she'rdan kelib chiqadiki, Vatan uchun jonu-tanimdan ayrilsam ham, hech qanday g'am yo'q avlodimga shu vatanim, g'amim g'uborga to'lsa ham vujudimda qo'rquv yo'q o'z vatanimdada hokim, go'ru-kafanim, tug'ilib o'sgan yerimga vujudim hok deya o'z qalbidagi vatanparvarlik ruhini bayon etmoqda yozuvchi. Avloniyning shu va shunga o'xshash asarlarida, she'rlarida vatanparvarlik tuyg'ulari sodda va ravon tilda tushuntirilgan va ta'riflangan [7, 8]. Masalan, shoirning «Maktab gulistoni»(1916)ga kirgan she'rlarida bu fikrlar davom ettirilgan.

Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,

Har kim sening qadring bilmas - aqli pastdur, - deb boshlanar edi undagi «Vatan» she'ri.

«Hijron so'zi»da esa ona-yurtning ko'rkam, boy va ulug'vor manzarasi chiziladi.

Bas, shunday ekan, uning uchun jonlarni fido etmoq kerak:

Vatan, vatan deya jonim tanimdan o'lsa ravon,

Bango na g'am qolur, avlodima o'yu vatanim.

G'ubor(g)a do'nsa tanim, yo'q vujudi zeri vahm,

Charoki, o'z vatanim xokidur go'ru kafanim.

Tilga, madaniyatga muhabbat esa har bir kishining xalqiga bo'lgan muhabbatidir. «Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oynai hayoti til va adabiyotidir», — yozadi adib.

Hozirgi davrda maktab darsliklarida 1-sinfanoq o'quvchi kitobining birinchi mavzusi Vatan haqidaligi tahsinga loyiqdir [16, 17, 18].

Zaminimizda tug'ilib o'sayotgan har bir bola qalbida vatanni sevish tuyg'usi bo'lmasa u xuddi bir zolim inson kabi qahri qattiq inson kabi ko'rinadi. Oldingi davrlarda yashab o'tgan ota-bobolarimiz bekorga, "Vatan ostonadan boshlanadi" deyishmagan. Bola maktabda chiqqanidan o'zi yashayotgan oilasini "Kichik vatan" deb o'rgatishadi [18, 19].



Abdulla Avloniyning 2009-yil nashrdan chiqarilgan “Tanlangan asarlari”ning birinchi jildiga kiritilgan “Vatan” she’rida ham olam ma’no aks etgan.

“Vatan”

*Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,
Har kim sening qadring bilmas-aqli pastdur.
Sening tuyg’ung yuraklarga savdo solur,
Sening darding boshqa dardni tortib olur.
Yering, suving bizni boqib to’ydiradur,
Semiz, semiz qo’ylaringni so’ydiradur.
Olma-anor, anjir, uzum-mevalaring
Otu ho’kiz, echki taka, tevalaring,
Bizlar uchun xizmat qilur barchalari,
Har birlari nozu ne’mat parchalari.
Sendan tug’ub, katta bo’lub, qaytib borub,
Yana senga kiradurmiz bag’ring yorub,
Onamizsan! Bizning mushfiq onamizsan!
Javlon urub yashaydurg’on xonamizsan! [1, 2].*

Ushbu she’rdan ham anglasa bo’ladiki, Vatan hissini, ushbu diyorning noz-ne’matlaridan yeb, vatan bag’rida yayrab yashayotganimiz aks ettirilgan. Vatanni shoir “Onamizsan, bizning mushfiq onamizsan”, - deya ta’riflaydi.

Abdulla Avloniyning shu va shu kabi yana bir qancha asarlarida, she’rlarida jamiki boshqa ijodida Vatanparvarlik tuyg’usi asosida yozilgan hikmatli so’zlariga, ta’lim-tarbiya, odob-axloq, xulq-atvorga doir ibratli, hikmatli, ta’rif, pedagogik qarashlariga duch kelamiz [9, 10, 11].

Har bir ijodkor ijod qilar ekan, uning qalbida avvalo Vatan tuyg’usi bo’lmog’i darkor. Unda qalb, chiroy ila ko’radigan his-tuyg’usi bo’lmog’i kerak. Vatanni sevmasdan u haqida yozib bo’lmaydi, unga ta’rif berib bo’lmaydi. Shunday ekan har bir ijodkor qo’liga qalam olar ekan, birinchi navbatda Vatanini kuylaydi [20, 21, 22]. Vatan tinch bo’lsagina shu vatanda yashayotgan inson tinch bo’ladi

Hozirgi kunda tinch, osoyishta davrda yashayotganimiz uchun, har bir bolaga shukronalik hissini o’rgatmog’imkz darkor. Albatta buni maktab yoshidan balki bolaligidan boshlab, pedagog olmlarning mutafakkirlarning, xususan Abdulla avloniyning oltinga teng qimmatli so’zlari blan tushuntirmoq, o’quvchi qalbiga singdirmoq darkor [23, 24, 25].

NATIJAR. Avloniyning «muhabbat» haqidagi fikr-mulohazalari ham diqqatga sazovor. Uningcha, «muhabbat» — aql va tafakkur mezoni. Umuman olganda, bunday yondoshish vijdonning ahamiyatini va mohiyatini to’g’ri tushunishga yordam beradi. Lekin unda bir oz konkretlik yetishmaydi. Vijdon tarozisining «aql va hikmatga muvofiq» ko’rilgan ishlarda «muhabbat» mavjud. Adib «yaxshi» va «yomon» talqin qilganda, ko’pincha, aqlga muvofiq keladigan, muvofiq kelmaydigan degan prindipdan kelib chiqadi.

«Agar ahmoq odam bo’lsa, o’z tug’ishgan birodaringni ham sevmasliging mumkin, lekin Vatanni, u qanday bo’lmasin, sevmaslik mumkin emas. Ammo bu muhabbat uning mavjud ahvolidan bir umr mamnunlik bo’lib qolmasligi, balki uni mukammallashtirishga chanqoq intilishdan iborat bo’lmog’i lozim», — degan edi donishmandlardan biri.

Vatan tuyg’usi eng insoniy, eng mo’tabar tuyg’ulardan biri. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan Onadek



muqaddas. Uni qadrlash, e'zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo'lish, g'amhasratini baham ko'rish farzandning burchi. Avloniy Vatan va uning oldidagi burchni shunday tushunadi [12, 13].

Farzandlar ham har xil bo'ladi. Onaning baxtiga sherik bo'lib, baxtsizligida yolg'iz tashlab ketuvchi farzandlar ham topiladi. Vatanning ham fusunkor tabiati, bog'-rog'larini xush ko'radigan, lekin tashvish va g'amlarini o'ylamaydigan farzandlari yo'q emas [14, 15].

Vatanni, u qanday bo'lmasin, sevish kerak. «Biz turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suydig'imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho'llarini, Shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab, hijrat qilurlar edi.

Bobolarimiz «Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l», - demishlar». Muallif o'z fikrini xilma-xil misollar bilan asoslashga harakat qiladi. Masalan, u shunday tamsilni keltiradi. Ayrim kishilar o'z hovli-joylarini, mol-mulklarini sotib, Makkaga ziyoratga borishadi. Hatto shularning ham aksari yana o'z vatanlariga qaytib keladilar. «Buning sababi, ya'ni bularni tortub keturgon quvvat o'z vatanlari tuproqlarining mehru muhabbatidir...», deydi.

Abdulla Avloniy - milliy ma'naviyatimizning eng zabardast siymolaridan biri. Uning serqirra ijodiy faoliyati millat yoshlarining barkamol shaxslar bo'lib voyaga yetishida, shubhasiz, muhim ahamiyatga ega. Binobarin, Avloniyning bugungi kungacha qo'lga kiritgan yutuqlari yozuvchi merosining hamma zamonlar va davrlar uchun birday ahamiyatli, qadrlı ekanligi to'g'risidagi muhim va haqqoniy xulosaga olib keladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Avloniy ilmiy merosi ona zaminga muhabbat tuyg'ularini targ'ib qiluvchi g'oyalardir. Uning asarlarida ilgari surilgan pedagogik fikrlar yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda qimmatli bir manba bo'lib xizmat qiladi. Bu ulug' adib ijodi, amaliy faoliyati bugungi kun yoshlarimiz uchun ibrat maktabi, desak adashmaymiz.

Adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. «Tanlangan asarlar» 1-2-jildlar. – T.: Ma'naviyat. 2006. - 55-56-bet.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. - 96 bet.”, 2006. - B.262.
3. Абдуллаев К.Ф. Мыслители востока о педагогической профессии //Культура мира и ненасилия подрастающего поколения: ракурсы интерпретации и педагогические условия развития. – 2020. – С. 117-120.
4. Pardaeva K. Uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonida Abdulla Avloniy asarlaridan foydalanish samaradorligi / «Abdulla Avloniyning ilmiy-pedagogik qarashlari» mavzusida Xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari. 2020-yil 10-iyul. – T.: TDPU, 2020.
5. Салаева М.С. Ўзбек педагогикаси тарихини даврлаштиришнинг назарий-педагогик асослари. Монография. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2008. – 200 б.
6. Салаева М.С., Кислицина И.Л., Салаева М.С. Ноёб қўлёзмалар коллекциялари. Монография. -Т.: Мумтоз нашриёти. 2019. - 112 б.
7. Салаева М.С ва муаллифлар жамоаси. Педагогика. Энциклопедия. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2018. – 424 б.
8. Салаева М.С. Педагогика тарихини даврлаштириш замон талаби. // Халқ таълими. – Тошкент, 2004. №2. – Б.17-19. (13.00.00).
9. Салаева М.С. Ўзбекистонда педагогика тарихини даврлаштириш муаммоси хусусида. // Ж. Педагогик таълим-Тошкент: 2007.№ 5.-Б.5-8.
10. Салаева М.С. Периодизация истории узбекской педагогики как педагогическая исследовательская задача // Ж. Современные гуманитарные исследования. -Москва. 2009. № 6. - С.164-165.



11. Салаева М.С. Действующие теоретические и практические основы периодизации истории узбекской педагогики. // Педагогические науки. Москва, 2011. №5. – С. 12-13.
12. Salayeva M.S. Pedagogical Conditions of Using the Materials of the Uzbek National Pedagogics in the Pedagogical Course Studying.// Eastern European Scientific Journal. Ausgabe 3-2016. www.Auris-Verlag.de (ISSN 2199-7977) - Pp. 63-168.
13. Salayeva M.S. Periodization problems, stages of formation and development the educational system of Uzbekistan. ISSN // Actual problems of modern sciences education and training in the region. Elektronik scientific edited volume. 1.2017. P189. - Pp. 195-195. (13.00.00 №1).
14. Salayeva M.S., Shoyunusova F.S. Bola shaxsini shakllantirishda ota-onalarning o'рни // Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». ISSN: 2658-7998. Электронный журнал. Выпуск No 24 (том 4) (март, 2022). - С.751-754.
https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/a62191_0b77bb588ae44c41874c43e8211ea9a8.pdf
https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/Март%202022.%20Том%204.pdf
15. Shoyunusova F.S., Salayeva M.S. (2022, November 1). Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar kelajagiga yuksak e'tibor // *Problems and scientific solutions*, Australia, Melbourne. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7269286>
16. Shoyunusova F.S., Salayeva M.S. (2022, October 11). Development of high-quality human capital is an important factor of society's development / Yuqori sifatli inson kapitalini rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida // *Innovative development in the global science*, Boston, USA. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7184486>
17. Shoyunusova F.S., Salayeva M.S. (2022). Ta'lim jarayonida o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish imkoniyatlari. *ACADEMIC RESEARCH JOURNAL*, 1(5), 9–14. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7227181>
18. Salayeva M.S., Shoyunusova F.S. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar kognitiv mobilligini xalqaro dasturlar asosida baholanishning o'ziga xos jihatlari / “Халқ таълими тизимидаги тегишли раҳбарлик лавозимларига муносиб ходимларни жой-жойига қўйишнинг долзарб масалалари” мавзусида онлайн конференция. Авлониё номидаги педагогларни касбий ривожлантириш ва янги методикаларга ўргатиш миллий-таджикот институти. -Т.: 2022. – Б.64-71.
19. Shoyunusova F.S., Salayeva M.S. Yangi O'zbekiston sharoitida uchinchi Renessansga mos barkamol avlodni shakllantirish muammolari / “XXI asr шахс тараққиёти: муаммо ва ечимлар” мавзусида 1-анъанавий талаба илмий жамияти ТИЖ илмий-амалий конференцияси, Тошкент амалий фанлар университети «Психология» кафедраси 2022 йил 20 декабрь. – Б.140-141.
20. Salayeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish // *SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | March, 2022*. ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 380-383.
<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf>
21. Salayeva M.S., Urazova K.V. Boshlang'ich ta'limda o'quv faoliyatning kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixik rivojlanishiga ta'siri / «Білім беру қызметі: инновациялық әдістер, құралдар және тәсілдер» тақырыбындағы халықаралық форум материалдары – Шымкент: «Қызмет» баспаханасы, 2022. - В.432-441. ISBN 978-601-06-8694-6
22. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Бошланғич таълим ўқувчиларини ижтимоий мобиллигини ривожлантириш // *Eurasian journal of social sciences, Philosophy and culture Innovative*. Academy Research Support Center UIF = 8.2 | SJIF = 6.051. Volume 2 Issue 4, April 2022. Pages 136-139. <https://zenodo.org/record/6511330#.Y1G0jnZByUk>



23. Салаева М.С., Джумабаева М.Б. Педагогнинг кичик мактаб ёшидаги болаларни ижтимоий мобиллигини оширишга таъсири // *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, ISSN - 2181-2608. With Impact Factor: 8.2 SJIF: 5.426 - Б. 59-62.
<http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1552>
24. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема // *SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan* www.scientificprogress.uz Pages 384-390.
<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf>
25. Салаева М.С., Мамадалиева У.С. Развитие когнитивной мобильности учащихся в начальном образовании / “Хорijiy tillarni o’qitishda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – B. 276-281.
26. Qosimov B., Rizaev Sh. Abdulla Avloniy (1878-1934) - <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-shuhratrizaevabdulla-avloniy-1878-1934/>
27. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Ахмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият. 2004. – 296 б.

